

# MUHANDISLIK

# & IQTISODIYOT

# №10

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

## 2025 oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari  
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 417 sahifa.  
2025-yil, 19-oktyabr,

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI .....	12
<b>Quliyev Begimqul Melikovich</b>	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI .....	18
<b>Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna</b>	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI .....	25
<b>Davletova Nilufar Tulanovna</b>	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	30
<b>Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li</b>	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY TAJRIBASI .....	37
<b>Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna</b>	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI .....	46
<b>Sultanov Dilshod Normamatovich</b>	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	50
<b>Akhmadaliyeva Nikholakhon</b>	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA‘LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI .....	62
<b>Yuldashev Iskandar Bahromovich</b>	
YER QA‘RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI .....	68
<b>Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li</b>	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA‘LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI .....	74
<b>Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich</b>	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI .....	80
<b>O. Nurmuradov</b>	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA‘LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	85
<b>Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li</b>	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	90
<b>Xuramov Zafar Rajabaliyevich</b>	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA‘MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI .....	95
<b>Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich</b>	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI .....	99
<b>Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li</b>	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	103
<b>Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li</b>	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI .....	109
<b>Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich</b>	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА.....	115
<b>Ягудин Дмитрий Рустамович</b>	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI.....	123
<b>Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich</b>	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH .....	129
<b>Abduraimova Nigora Abdugapparovna</b>	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI .....	134
<b>Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li</b>	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ.....	140
<b>Мансурова Сайёра Бахтияровна</b>	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	148
<b>Xolikova Oydin Olimjonovna</b>	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI .....	153
<b>Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich</b>	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES.....	158
<b>Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi</b>	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI .....	166
<b>Suyunov Asror Baxtiyorovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOYILLARI.....	171
<b>Z.Teshayev</b>	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	176
<b>Ismailov Allayor Rashidovich</b>	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH .....	183
<b>Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li</b>	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА .....	186
<b>Исмагулова Гульмира Нуралиевна</b>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI.....	193
<b>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILYIY MEXANIZMLARI.....	198
<b>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA.....	203
<b>Abduraxmonov Akmal Nurmat o'g'li</b>	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI .....	207
<b>Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna</b>	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI .....	212
<b>Mdraximova Gulasal Ro'zimboy qizi</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI .....	220
<b>Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	226
<b>Norova Nozima Nabiyevna</b>	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASTERLI MEXANIZMI TAHLILI .....	232
<b>Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li</b>	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....	236
<b>Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich</b>	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	242
<b>Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li</b>	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR .....	247
<b>Dusanov Salim Mamarasulovich</b>	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	254
<b>Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li</b>	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH .....	262
<b>Ostonokulov Azamat Abdugarimovich</b>	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН .....	273
<b>Хошимова Камилла Навфал қизи</b>	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY .....	285
<b>Ibrayim Maxkamov</b>	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI .....	291
<b>Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna</b>	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI .....	297
<b>Hamroyev G'ayratjon Sultonovich</b>	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH .....	301
<b>Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich</b>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ .....	306
<b>Элбаева Мукаддас Рашидовна</b>	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ .....	311
<b>Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент</b>	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	319
<b>Базарова Гулнара Гуламовна</b>	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	323
<b>Pulatova Moxira Baxtiyorovna</b>	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT .....	327
<b>Azamat Umirzokov</b>	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI.....	334
<b>Ismailov Nurulla Tuychibayevich</b>	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI .....	339
<b>Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich</b>	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI .....	343
<b>Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna</b>	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	347
<b>Axmedov Farxod Raxmonjonovich</b>	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS.....	354
<b>Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi</b>	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA .....	362
<b>Ilyasova Barno Axmadovna</b>	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI .....	371
<b>G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li</b>	
EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	378
<b>Raximov Eshmurod Normuradovich</b>	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	385
<b>Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi</b>	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEXANIZMLARI.....	392
<b>Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li</b>	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI .....	398
<b>Bozorova Farida Maxmudjonovna</b>	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	405
<b>Пулатов Дилшод Хақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Аброрбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович</b>	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR .....	410
<b>Talapova Nargiza Baxriddinovna</b>	



# OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR

**Talapova Nargiza Baxriddinovna**

Namangan davlat universiteti

Menejment kafedrası dotsent v.b., PhD

Email: [talapovanargiza83@gmail.com](mailto:talapovanargiza83@gmail.com)

ORCID: 0009-0009-9756-0058

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi, ularning mehnat bozoriga ta'siri hamda xalqaro tajriba asosida qiyosiy tahlili yoritilgan. Tadqiqotda investitsiya siyosatining nazariy va metodologik asoslari, amaliy natijalari va istiqbollari tahlil qilingan. Olingan natijalar oliy ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim omil ekanini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, investitsiya siyosati, inson kapitali, iqtisodiy o'sish, mehnat bozori, raqamli transformatsiya.

**Abstract.** The article examines the economic efficiency of investments in Uzbekistan's higher education system, their impact on the labor market, and provides a comparative analysis based on international experience. The study outlines the theoretical and methodological foundations, practical outcomes, and future prospects of investment policy. The results confirm that investments in higher education are a vital factor for the sustainable development of the national economy.

**Keywords:** Higher education, investment policy, human capital, economic growth, labor market, digital transformation.

**Аннотация.** В статье рассматривается экономическая эффективность инвестиций в систему высшего образования Республики Узбекистан, их влияние на рынок труда, а также проводится сравнительный анализ с учетом международного опыта. В исследовании раскрываются теоретико-методологические основы, практические результаты и перспективы инвестиционной политики. Полученные выводы подтверждают, что инвестиции в сферу высшего образования являются важным фактором устойчивого развития национальной экономики.

**Ключевые слова:** Высшее образование, инвестиционная политика, человеческий капитал, экономический рост, рынок труда, цифровая трансформация.

## KIRISH

XXI asrda jahon iqtisodiyotining asosiy drayverlaridan biri sifatida inson kapitali tushunchasi tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlariga ko'ra, inson kapitalining eng muhim tarkibiy qismi sifatida ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim e'tirof etiladi. Chunki oliy ta'lim sohasi nafaqat yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, balki iqtisodiy modernizatsiya, innovatsion taraqqiyot va milliy raqobatbardoshlikni ta'minlashda strategik omil hisoblanadi [1].

Jahon banki va OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)ning turli yillik hisobotlari ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalarni milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror o'sish omili sifatida talqin qiladi. Masalan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, ta'lim sohasiga yo'naltirilgan har bir 1 dollar investitsiya kelajakda 4–7 baravar iqtisodiy daromad keltirishi mumkin. Shu bois, bugungi globallashuv sharoitida ta'lim, ayniqsa, oliy ta'lim tizimiga kiritilayotgan investitsiyalarni strategik investitsiya sifatida baholash to'g'ri bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan boshlab inson kapitalini rivojlantirishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab kelmoqda. Xususan, 2017-yildan buyon amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida mamlakatda oliy ta'lim muassasalari soni keskin ortdi, xalqaro universitetlar va xorijiy filiallar faoliyat yurita boshladi, davlat budjeti hisobidan ta'limga ajratilayotgan mablag'larning hajmi ham sezilarli darajada kengaydi. Bu esa oliy ta'lim tizimiga davlat investitsiyasining kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xususiy sektor investitsiyalarini jalb etish, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini rivojlantirish hamda xalqaro moliya institutlari mablag'laridan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mazkur maqola mavjud muammolarni tahlil qilish, oliy ta'limga investitsiya siyosatining nazariy va amaliy asoslarini yoritish, shuningdek, xalqaro tajribani O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqishga qaratilgan. Maqola IMRAD uslubida tayyorlanib, quyidagi vazifalarni qamrab oladi:



- oliy ta'lim tizimiga investitsiya siyosatining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish;
- O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan davlatlar misolida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash;
- davlat va xususiy sektor ishtirokida ta'limga kiritilayotgan investitsiyalarning natijalarini aniqlash;
- oliy ta'lim sohasida barqaror investitsiya siyosatini shakllantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

Shunday qilib, oliy ta'limga investitsiya siyosatini o'rganish hozirgi sharoitda nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham nihoyatda muhimdir. Zero, inson kapitali va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash darajasi mamlakatning ertangi iqtisodiy qudrati va raqobatbardoshligini belgilab beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'limga yo'naltirilgan investitsiya siyosatini tahlil qilgan ko'plab tadqiqotchilar bu jarayonning iqtisodiy o'sish, inson kapitalini rivojlantirish va innovatsion muhitni shakllantirishdagi roliga e'tibor qaratgan. Jahon Banki ekspertlari Harry Anthony Patrinos va Quentin Wodon o'z izlanishlarida ta'limga yo'naltirilgan sarmoyalar mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi eng samarali vositalardan biri ekanini ta'kidlaydilar. Ularning tahlillarida oliy ta'limga ajratilgan mablag'lar nafaqat bandlik darajasini oshiradi, balki ijtimoiy tenglikni mustahkamlovchi omil sifatida ham xizmat qiladi.

Shuningdek, Philip G. Altbach oliy ta'lim tizimlarining globallashuvi va massifikatsiya jarayonini chuqur o'rgangan. U oliy ta'limning xalqaro raqobatbardoshlikdagi o'rni, sifat ko'rsatkichlarini oshirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan investitsiya strategiyalarini tahlil qilib, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida ilmiy infratuzilma, professor-o'qituvchilar malakasi va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni ko'rsatgan.

Simon Marginson esa oliy ta'limni ijtimoiy investitsiya sifatida talqin qilib, davlat budjeti, xususiy sektor va talabalar moliyaviy ishtirokini muvozanatlash zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, davlatning oliy ta'limga kiritgan investitsiyasi "xalqaro mehnat bozorida intellektual kapital eksporti"ni kuchaytiruvchi asosiy omildir.

OECD tomonidan tayyorlangan "Education at a Glance" hisobotlarida esa moliyalashtirish manbalari va ta'lim natijalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Hisobotda ta'limga ajratilgan xarajatlar ko'pincha iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan bevosita korrelyatsiyada ekanligi, ammo bu natija samarali boshqaruv va sifat monitoringi tizimiga bog'liqligi qayd etilgan.

O'zbekiston kontekstida Jahon Bankining "Modernizing Higher Education Project" dasturi va UNESCOning "Education Finance Watch" tahlillari milliy oliy ta'lim tizimiga yo'naltirilgan sarmoyalar samaradorligini oshirish uchun aniq yo'nalishlarni belgilab beradi. Bu loyihalarda ta'lim sifatini baholash, infratuzilmani raqamlashtirish va universitetlarning iqtisodiy mustaqilligini kengaytirish asosiy yo'nalish sifatida ko'rsatilgan.

Umuman olganda, Altbach, Patrinos, Marginson, va Jahon Banki ekspertlari olib borgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limga investitsiya siyosati iqtisodiy barqarorlikning ajralmas qismi bo'lib, uni faqat mablag' hajmini oshirish orqali emas, balki natijadorlik va sifat mezonlariga asoslangan strategik yondashuv orqali takomillashtirish zarur.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim tizimiga investitsiya siyosatini ilmiy tahlil qilishda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar bir necha asosiy tamoyillarga tayanadi. Avvalo, tadqiqot inson kapitali nazariyasi, institutsional iqtisodiyot va iqtisodiy o'sish modellariga asoslanadi. Gary Becker 1964-yilda ishlab chiqilgan inson kapitali konsepsiyasi ta'limga kiritilgan investitsiyalar jamiyat farovonligi va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishini nazariy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, Denison, Solou va boshqa olimlarning iqtisodiy o'sish modellari ham tadqiqotning nazariy poydevorini tashkil etadi [1][2][3].

Mazkur tadqiqotda qo'llanilgan asosiy ilmiy-uslubiy yondashuvlar quyidagilardan iborat. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Moliya vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida so'nggi 10 yil davomida oliy ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi, ularning YAIMdagi ulushi, davlat budjeti va xususiy sektor ishtiroki tahlil qilindi. Statistika tahlil orqali investitsiya hajmining o'sish dinamikasi, hududlar bo'yicha taqsimoti va moliyalashtirish manbalari baholandi.

O'zbekiston tajribasi Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya va Rossiya kabi davlatlarning oliy ta'limga investitsiya siyosati bilan qiyoslandi. Ushbu yondashuv mamlakatimizda qo'llanishi mumkin bo'lgan samarali mexanizmlarni aniqlash imkonini berdi.

Oliy ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar va mehnat bozorida natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun korrelyatsion-regression usuldan foydalanildi. Xususan, investitsiya hajmi (x) bilan oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan bitiruvchilarning bandlik darajasi va YAIM o'sish sur'atlari (y) o'rtasidagi munosabat matematik model asosida hisoblab chiqildi.

Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Prezident Farmon va qarorlari hamda Hukumat qarorlari tadqiqotning muhim manbasi sifatida o'rganildi. Ushbu tahlil amaldagi siyosatning institutsional asoslarini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda UNESCO, Jahon banki, OECD va ILO (Xalqaro mehnat tashkiloti) kabi xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlaridan foydalanildi. Ular orqali ta'limga investitsiyaning global tendensiyalari, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti o'rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi ko'p qirrali yondashuvga asoslanadi: bir tomondan, statistik va matematik usullar yordamida raqamli natijalar olinadi, ikkinchi tomondan esa, qiyosiy va normativ tahlil orqali sifat jihatlari yoritiladi. Shu bois, maqolada nafaqat raqamlar, balki ularning iqtisodiy mazmuni va amaliy ahamiyati ham keng tahlil qilinadi [4][5][6].

Bunday integratsiyalashgan metodologiya oliy ta'lim tizimiga investitsiyalarni nafaqat moliyaviy ko'rsatkich sifatida, balki strategik iqtisodiy resurs sifatida baholash imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonning oliy ta'lim tizimiga yo'naltirilgan investitsiya siyosati so'nggi yillarda sezilarli darajada jadallashganini ko'rsatadi. Bu jarayonni bir nechta yo'nalish bo'yicha tahlil qilish mumkin.

O'zbekiston bo'yicha oliy ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi. So'nggi o'n yillikda mamlakatimizda ta'lim tizimini moliyalashtirish hajmi yil sayin oshib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ta'lim sohasi uchun ajratilgan mablag'larning ulushi 2015-yilda 5,5 foiz bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 7,3 foizga yetdi. Shundan oliy ta'lim uchun ajratilayotgan mablag'lar hajmi ham ikki baravardan ortdi [9][11].

Bundan tashqari, 2017–2023-yillar mobaynida O'zbekistonda yangi tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalari soni ikki martadan ko'proqqa oshdi. Agar 2016-yilda mamlakatda atigi 77 ta oliy o'quv yurti mavjud bo'lgan bo'lsa, 2023-yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 200 dan oshdi. Shundan 30 ga yaqin xorijiy universitet filiallari va xususiy oliy o'quv yurtlari faoliyat yurita boshladi. Bu esa xususiy va xorijiy investitsiyalar oqimi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Oliy ta'limga davlat investitsiyalari. Davlat investitsiyalarining asosiy qismi oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishga, stipendiya va grantlar tizimini kengaytirishga hamda ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda. Masalan, 2022-yilda davlat oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalar uchun 12 trillion so'mdan ortiq mablag' davlat grantlari va stipendiyalar shaklida sarflandi [8].

Shuningdek, Prezident tashabbusi bilan "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyati qayta tashkil etilib, xorijda tahsil olayotgan yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash uchun alohida davlat mablag'lari yo'naltirildi. Bu esa oliy ta'limga investitsiya siyosatining kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilganini ko'rsatadi.

Oliy ta'lim sohasida xususiy sektorning faolligi ortib bormoqda. So'nggi yillarda 30 dan ortiq xususiy universitet va xorijiy filiallar ochildi. Masalan, Toshkent shahrida Turin politexnika universiteti, Inha universiteti, Webster universiteti, shuningdek, London, Seul va Moskva kabi markaziy shaharlardagi universitetlarning filiallari faoliyat yuritmoqda. Bu ta'lim tizimiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini ta'minlamoqda.

2021-yilda qabul qilingan qarorlarga ko'ra, xususiy oliy ta'lim muassasalari o'z faoliyatini boshlash uchun soddalashtirilgan litsenziya tartibidan foydalana boshladi. Natijada, qisqa muddat ichida mamlakat bo'ylab turli sohalarida faoliyat yurituvchi o'quv maskanlari tashkil etildi.

O'zbekiston mehnat bozorida oliy ma'lumotli kadrlar soni ortib bormoqda. 2015-yilda aholining oliy ma'lumotliligi 12–13 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 18 foizga yaqinlashdi. Shu bilan birga, bitiruvchilarning mehnat bozorida bandlik darajasi ham oshib bormoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, oliy ta'limga kiritilgan investitsiyalar bilan bandlik darajasi o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud. Jumladan, regression model hisob-kitoblariga ko'ra, oliy ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalarning 1 foizga ortishi mehnat bozorida oliy ma'lumotli yoshlar bandligini o'rtacha 0,4–0,6 foizga oshishiga olib keladi [12]. Bu esa investitsiyalarning qisqa muddatli samarasi sifatida baholanishi mumkin.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish yo'nalishida ham sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi. Pandemiya davri ta'lim jarayonini onlayn platformalarga ko'chirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Shu sababli davlat va xususiy sektor tomonidan onlayn ta'lim platformalari, elektron kutubxonalar hamda masofaviy o'qitish tizimlariga katta hajmdagi mablag'lar yo'naltirildi.

Bundan tashqari, universitetlarda startup markazlari, texnoparklar va inkubatsiya markazlari tashkil etilib, ular orqali talabalar va yosh olimlarning innovatsion loyihalariga investitsiyalar jalb qilinmoqda. Masalan, Toshkent davlat texnika universitetida 2022-yilda tashkil etilgan "TechnoHub" inkubatsiya markazi doirasida 50 ga yaqin talabalar startup loyihasi moliyalashtirildi.

O'zbekiston tajribasi boshqa rivojlanayotgan davlatlar bilan qiyoslanganda ham ijobiy tendensiyalarni ko'rsatmoqda. Masalan, Janubiy Koreya iqtisodiy "mo'jizasi"ning asosiy omillaridan biri sifatida ta'limga kiritilgan



investitsiyalar qayd etiladi. Bu davlatda ta'lim xarajatlarining YAIMdagi ulushi 6 foizdan ortiqni tashkil etadi. Singapurda esa xususiy sektorning ta'limdagi ulushi davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar bilan teng darajada ekani ta'kidlangan. O'zbekistonda hali bu ko'rsatkich past bo'lsa-da, tendensiya ijobiy yo'nalishda rivojlanmoqda [12][13].

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimiga investitsiya siyosati so'nggi yillarda sezilarli darajada kuchayganini quyidagi omillar orqali ifodalash mumkin: davlat budjeti xarajatlarida ta'lim ulushining o'sishi, xususiy oliy ta'lim muassasalari va xorijiy filiallarning faoliyatga kirib kelishi, mehnat bozorida oliy ma'lumotli mutaxassislar bandligining ortib borishi, raqamli transformatsiya va innovatsion loyihalarning qo'llab-quvvatlanishi, xalqaro ta'lim bozoriga integratsiya jarayonlarining jadallashuvi.

Bu natijalar oliy ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonning oliy ta'lim tizimiga investitsiya siyosati so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashganini ko'rsatdi. Ammo olingan ma'lumotlarni chuqurroq tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar hajmi va manbalarida o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi, sifat ko'rsatkichlari va barqarorligi masalalari hanz dolzarb bo'lib qolmoqda [4][6].

O'zbekiston oliy ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining so'nggi yillarda ikki baravardan ortgani ushbu sohada rivojlanish sur'atlarining jadallashayotganini ko'rsatadi. Davlat grantlari va stipendiyalarining kengaytirilishi ijtimoiy adolatni mustahkamlab, ta'limdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, mehnat bozorida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini yanada oshirish uchun ta'lim jarayonini xalqaro me'yorlarga moslashtirish, ishlab chiqarish bilan amaliy integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy tadqiqotlarning tijoratlashuvini jadallashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Bu esa shuni anglatadiki, investitsiyalar hajmining o'sishi ta'lim sifatini yanada yuksaltirish imkonini beradi, biroq buning uchun mablag'larni maqsadli yo'naltirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va samarali monitoring mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi [13].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi hozircha asosan davlat investitsiyalariga tayansa-da, bu sohada xususiy sektor faolligining ortib borayotgani ijobiy jarayon hisoblanadi. Xususiy universitetlar va xorijiy filiallar sonining oshishi ta'lim bozorida raqobatni kuchaytirib, ta'lim sifatini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Jahon amaliyoti ham shuni tasdiqlaydiki, ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalarda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi muvozanat barqarorlikni ta'minlaydi. Masalan, AQShda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy ta'minotida davlat ulushi 30–35 foizni tashkil etadi, Singapurda esa davlat va xususiy sektor o'rtasida muvozanatli taqsimot shakllangan.

O'zbekiston sharoitida ham xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish orqali ta'lim sohasiga yangi moliyaviy manbalarni jalb etish istiqbollari mavjud. Buning uchun davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini yanada kengaytirish, ta'lim kreditlarini rivojlantirish va xalqaro grantlar tizimini faollashtirish zarur.

Regression tahlil natijalari oliy ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar bilan mehnat bozorida bandlik darajasi o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa shuni anglatadiki, ta'lim sifatining oshishi iqtisodiy o'sish va bandlik darajasiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim tizimiga investitsiyalarni oqilona boshqarish mamlakatning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Masalan, Janubiy Koreya va Germaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim dasturlarining ishlab chiqarish sektori bilan uyg'unlashuvi yuqori darajada bo'lsa, bitiruvchilarning mehnat bozorida ish topish ko'rsatkichi 90 foizdan ortadi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich hali pastroq — taxminan 70–75 foiz atrofida. Shunday ekan, investitsiyalar nafaqat infratuzilma va grantlarga, balki ta'lim sifatini oshirish hamda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Oliy ta'lim tizimiga jalb qilinayotgan investitsiyalarning muhim yo'nalishi — bu raqamli texnologiyalarni joriy etishdir. Pandemiya davrida ushbu jarayon jadallashdi. Onlayn ta'lim platformalariga kiritilgan investitsiyalar qisqa muddat ichida ta'lim jarayonini uzluksiz davom ettirish imkonini berdi.

Kelgusida mavjud muammolarni hal etish uchun bir necha istiqbolli yo'nalishlarni belgilash zarur. Jumladan, ta'lim obligatsiyalarini joriy etish orqali investitsiya manbalarini kengaytirish, xususiy sektorni jalb etish uchun soliq imtiyozlari va moliyaviy rag'batlar yaratish, universitetlarning o'z-o'zini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish (ilmiy loyihalar, startaplar, konsalting xizmatlari orqali), hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda oliy ta'limga investitsiya siyosati sezilarli ijobiy natijalar bermoqda. Biroq, uning samaradorligini yanada oshirish uchun investitsiyalarni hajm emas, balki sifat va natija nuqtayi nazaridan baholash, davlat va xususiy sektor o'rtasida muvozanatni ta'minlash, mehnat bozorining real ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash, shuningdek, raqamli ta'lim va innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish zarur.

Shu tariqa, oliy ta'limga investitsiya siyosati mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishida kuchli katalizator bo'lib xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim sohasiga yo'naltirilgan investitsiya siyosati so'nggi yillarda sezilarli faollashgan va bu yo'nalishda tizimli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan ajratilayotgan budget mablag'lari hajmining ortishi, xususiy oliy ta'lim muassasalari hamda xorijiy universitetlar filiallari sonining ko'payishi, shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonlarining kengayishi ushbu sohaning modernizatsiyalashuvini jadallashtirmoqda. Ushbu o'zgarishlar ta'lim tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish, kadrlar salohiyatini mustahkamlash va ta'lim xizmatlarining raqobatbardoshligini ta'minlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Davlat investitsiyalarining o'sib borayotgani ularni strategik jihatdan muhim yo'nalishlarga — infratuzilmani rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash kabi sohalarga yo'naltirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, ta'lim sifati va o'qituvchilar malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlar hamda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga e'tibor kuchayib bormoqda. Bu esa oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va uning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash uchun muhim zamin yaratadi.

Xususiy sektor va xorijiy investitsiyalar ulushi bosqichma-bosqich ortib borayotgani ta'lim tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayon kelgusida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining keng qo'llanilishi, xalqaro grantlar hamda ta'lim kreditlari tizimining rivojlanishi orqali yanada kengayishi kutilmoqda.

Mehnat bozorida oliy ma'lumotli kadrlar bandligi ko'rsatkichlarining o'sib borayotgani oliy ta'lim tizimining ijobiy ta'sirini aks ettiradi. Shu bilan birga, o'quv dasturlarining ishlab chiqarish sektori bilan uyg'unligini oshirish, amaliyot va ilmiy tadqiqotlarni integratsiyalash orqali bu bog'liqlik yanada mustahkamlanishi kutilmoqda. Raqamli ta'lim va innovatsion loyihalarga yo'naltirilayotgan investitsiyalar pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyasini oshirish va texnologik infratuzilmani rivojlantirish orqali yanada yuqori natijalar berishi prognoz qilinmoqda.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi rivojlanish yo'lida ijobiy dinamikani namoyon etmoqda. Kelgusida xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytirish, xalqaro grantlardan samarali foydalanish va ilg'or xorijiy tajribani milliy ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish orqali ta'limning iqtisodiy samaradorligi yanada oshishi kutiladi.

Shunday qilib, oliy ta'lim tizimiga investitsiya siyosatini takomillashtirish, uni milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi omilga aylantirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar istiqbolli natijalar berishi prognoz qilinmoqda. Eng avvalo, moliyaviy mexanizmlarni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ta'lim obligatsiyalari va maxsus ta'lim fondlarini joriy etish orqali investitsiya manbalarini kengaytirish, shuningdek, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish lozim. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosidagi loyihalarni keng tatbiq etish orqali ta'lim tizimining barqaror moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, investitsiyalarning yo'naltirilish samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada mablag'larni nafaqat infratuzilma obyektlariga, balki ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlar malakasini doimiy ravishda rivojlantirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish talab etiladi. Universitetlarda ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish esa ta'lim va iqtisodiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish ham alohida ahamiyatga ega. Oliy ta'lim dasturlarini iqtisodiyotning real sektori ehtiyojlariga moslashtirish, korxonalar va universitetlar o'rtasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda talabalar uchun amaliyot va stajirovka dasturlarini kengaytirish orqali mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish istiqboldagi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, onlayn ta'lim platformalariga investitsiyalarni ko'paytirish, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini oshirish hamda talabalar uchun sifatli elektron kontent yaratish zarur. Shuningdek, xalqaro onlayn kurslar bilan integratsiyani yo'lga qo'yish orqali ta'limning global sifat standartlariga moslashuv darajasini oshirish mumkin.

Yana bir muhim yo'nalish — bu xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirishdir. Ta'lim sohasiga xususiy kapitalni jalb etish uchun soliq imtiyozlari va preferensiyalarni joriy etish, xususiy oliy o'quv yurtlari faoliyatini huquqiy hamda institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash zarur. Shu bilan birga, ta'lim xizmatlari bozorida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish orqali innovatsion va sifatli ta'lim xizmatlarining taklifini kengaytirish mumkin.



Umuman olganda, mazkur chora-tadbirlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi O'zbekiston oliy ta'lim tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ta'lim sifatini oshirish hamda inson kapitalini rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar oddiy xarajat emas, balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va inson kapitalining shakllanishiga xizmat qiluvchi strategik sarmoya hisoblanadi. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda mazkur investitsiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, O'zbekistonda oliy ta'limga investitsiya siyosatini izchil davom ettirish va uning samaradorligini oshirish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy raqobatbardoshligi hamda ijtimoiy farovonligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Becker, G. S. (1964). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. Chicago: University of Chicago Press.
2. Denison, E. F. (1967). *Why Growth Rates Differ: Postwar Experience in Nine Western Countries*. Washington, D.C.: Brookings Institution.
3. Solow, R. M. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. *Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65–94.
4. OECD. (2020). *Education at a Glance 2020: OECD Indicators*. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/69096873-en>
5. UNESCO. (2022). *Global Education Monitoring Report 2022*. Paris: UNESCO Publishing. <https://www.unesco.org/gem-report>
6. World Bank. (2020). *World Development Report 2020: Trading for Development in the Age of Global Value Chains*. Washington, D.C.: World Bank. <https://www.worldbank.org>
7. ILO. (2021). *Global Employment Trends for Youth 2021*. Geneva: International Labour Organization. <https://www.ilo.org>
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2023). *Oliy ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari*. Toshkent.
9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2022). *Davlat budjeti ijrosi bo'yicha hisobot*. Toshkent.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). *O'zbekiston raqamlarda: ta'lim sohasi statistik ko'rsatkichlari*. Toshkent.
11. Lee, J.-W., & Lee, H. (2016). Human Capital and Economic Growth. *Asian Development Bank Economics Working Paper Series*, No. 473. Manila: ADB.
12. Psacharopoulos, G., & Patrinos, H. A. (2018). Returns to Investment in Education: A Decennial Review of the Global Literature. *Education Economics*, 26(5), 445–458.
13. Karlibaeva G. X. (2024). Oliy ta'lim tizimiga investitsiya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari: PhD. diss. avtoreferati - Toshkent, 2024. 13-15.
14. Rakhmonov D. A. (2018). O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: DSc. Diss. Avtoreferati – Toshkent, 2018. 22-23.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)